ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida) 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida) 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

USMON AZIM NASRIDA LIRIK OHANG

Javliyev Poyonbek Shavkat o'g'li,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

O'zbek adabiyotining so'ngi yillardagi taraqqiyot jarayonida nasr va she'riyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalasi alohida ilmiy e'tibor talab qiladigan muhim hodisalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Adabiy jarayonning dinamik rivojlanishi, badiiy shakl va mazmunning yangilanishi, yozuvchilarning estetik izlanishlari natijasida nasrda poyetik elementlarning kuchayishi sezilarli darajada ortdi. Bu holat o'zbek adabiyotida nasrning poyetiklashuvi, ya'ni nasr matnida she'riyatga xos tasviriy vositalar, lirik ohangdorlik, ramziy qatlamlar va musiqiylikning tobora ko'proq qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Mazkur jarayonning yorqin namunalarini Usmon Azim ijodida yaqqol ko'rish mumkin. Usmon Azim o'zbek she'riyatida o'z ovoziga ega bo'lgan ijodkor sifatida tanilgan bo'lsa-da, nasrda ham o'ziga xos badiiy-estetik tamoyillarni shakllantira oldi. Uning nasriy asarlari oddiy voqeani hikoya qilishdan iborat emas, balki poyetik tafakkurni nasrga singdirish orqali o'zbek nasrida yangi badiiy qiyofa yaratishga xizmat qiladi. Adibning nasrida voqealar tasviri ko'pincha she'riy ohangda beriladi, qahramonlarning ruhiy kechinmalari lirik monologlar orqali ifodalanadi, ramziy tasvirlar esa asarning mazmuniy qatlamini chuqurlashtiradi.

Adibning hikoyalarida oddiy voqealar poyetik tafakkur bilan uyg'unlashib, milliy ruh, insoniy iztirob va estetik tamoyillarni birlashtirgan holda yangi badiiy-estetik qiyofa yaratadi. Bu holat uning deyarli barcha asarlarida kuzatiladi. Nasrda poyetik elementlarning kuchayishi, ramziy qatlamlarning boyishi va lirik ohangdorlikning ustuvorligi Usmon Azim ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Maqolamizning obekti sifatida Usmon Azimning "G'oz" hikoyasini oladigan bo'lsak, hikoya "Alpomish dostoni ta'sirida yozilgan bo'lib, unda xabarchi g'oz Alpomish yotgan choxga yaralanib tushgani, uni Alpomish davolab qanotlarini tuzatgani va oyog'iga xat bog'lab, Boysunga yo'llagan g'ozni qutqargan kampirning g'ozni otolmay qolgan mergan o'g'lining taqdiri ne kechgani haqida bayon etadi" [1] Ushbu syujet xalq og'zaki ijodiga xos epik asosda qurilgan bo'lsa-da, unda lirik ohang va ramziy tasvirlar kuchli darajada seziladi.

G'ozga o'q tekkizolmagan Mergan birinchi marotaba o'qi xato ketganligi, nomdor mergan bo'la turib, birgina g'ozni otolmaganligi sababli xastalik to'shagiga mixlanadi. Ammo bu xastalik jismiy emas, balki ruhiy jarohatdir. Uning qalbini og'ritgan narsa – g'urur edi. Shu tarzda yozuvchi oddiy voqeani insoniy iztirob va ruhiy sinish darajasiga ko'taradi. Usmon Azim mana shu kichikkina syujetni kengaytirib, uni hikoyaga aylantiradi va unda g'ozni otolmagan o'g'il hamda g'ozni qutqargan ona timsoli yoritiladi.

Hikoyada g'ozni otolmagan o'g'il va onaning o'rtasidagi munosabatni ijodkor shunday ifodalaydiki, kitobxon bevosita onaning ahvoliga o'zi tushganday bo'ladi. Bu tasviriy mahorat Usmon Azim nasrni poyetik darajaga ko'tarish qobiliyatini ko'rsatadi. Hikoya voqealari orqali yozuvchi milliy qadriyatlar, ona mehrining ulug'vorligi, g'urur va oriyat kabi fazilatlarni badiiy-estetik tamoyillar darajasida talqin qiladi. Shu tariqa, "G'oz" hikoyasi nafaqat epik asosga ega bo'lgan xalqona rivoyatni qayta talqin etadi, balki nasr va she'riyat o'rtasidagi sintezning yorqin namunasi sifatida o'zbek adabiyotida alohida o'rin egallaydi. G'oz hikoyasidan olingan quyidagi parcha orqali fikrimizni davom ettirsak, ushbu parchada g'ozni uchirib yuborgan onasining bu ishini ko'rgan mergan onam meni o'limimni xohladi, deb onasiga hasrat qiladi, "Mergan shunday deb onasiga bo'zladi, bechora enasining jigar-bag'rini tuzladi. Kampir yig'lab ichkari kirib, tashqari chiqyapti, bolasining boshida o'rgilyapti, dili vayron, taqdirning nogahon zulmidan hayron, o'g'liga, balki o'ziga madad berib so'zlayapti: –Bolam! Jonim bolam! Men ham xudoning bir kuygan bandasiman. Olloh ko'nglimga soldi... U g'ozsiz ko'p yomon bo'lardi, Boysun - Qo'ng'irot tamom bo'lardi, Alpomish chohda qolardi. Barchinni Ultontoz olardi... Bir yurt yo'q bo'lardi, jon bolam! Ammo sensiz menga bu dunyo qorong'u! Ollohdan bir umringni so'rab olmasam, enang bo'lib nima qildim, – deb yig'layapti"[2]. Bu parcha hikoyaning eng lirik nuqtalaridan biri bo'lib, unda epik voqea to'xtab, ona va farzand o'rtasidagi ruhiy iztirob, ichki monolog va murojaat lirizmga aylanadi. Matnda, avvalo, ohang yig'i va murojaat

[1] Azim U. G'oz: hikoya. Sharq yulduzi. – 1991. – № 8.
[2] Fozilova M. Usmon Azim ijodida "Alpomish" dostoni motivlari // O'zbek tili va adabiyoti. – 2015. – № 6.

shaklida qurilgan bo'lib, Kampirning "Bolam! Jonim bolam!" deya takroriy murojaati xalq qo'shiqlaridagi nola ohangini eslatadi. Bu takroriylik matnga musiqiy ritm beradi va ona mehrining cheksizligini ta'kidlaydi. Ikkinchi jihat – lirik kontrast. Ona bir tomondan yurt taqdirini eslatadi: "U g'ozsiz ko'p yomon bo'lardi, Boysun-Qo'ng'irot tamom bo'lardi, Alpomish chohda qolardi..." Bu umumiy epik vazifa. Ijodkor Kampirni darhol o'z shaxsiy iztirobiga qaytaradi: "Ammo sensiz menga bu dunyo qorong'u!" Shu tarzda matnda yurt va ona qalbi o'rtasidagi qarama-qarshilik lirizmni kuchaytiradi. Uchinchi jihat – ramziy qatlam. Ona o'zini "xudoning kuygan bandasiman" deb ataydi. Bu tasviriy ifoda uning iztirobini ramziy darajaga ko'taradi: u nafaqat farzand dog'ida kuygan ona, balki taqdir oldida ojiz inson timsoli. To'rtinchi jihat – intonatsiya va ohangdorlik. Parcha ichida qisqa jumlalar, takroriy murojaatlar, iztirobli ohanglar mavjud. Bu nasrni she'riy nutqqa yaqinlashtiradi. Ayniqsa, "Ammo sensiz menga bu dunyo qorong'u!" jumlasi lirizmning cho'qqisi bo'lib, ona qalbining butun og'irligini ifodalaydi. Bu parcha hikoyaning epik oqimidan ajralib, sof lirik monologga aylanadi. Unda ona mehrining cheksizligi, yurt fidoyiligi va taqdir oldidagi ojizlik birlashib, she'riyatga xos ohangdorlik va ramziy ma'nolarni yuzaga chiqaradi.

Hikoyada oriyat va g'urur masalasi markaziy o'rinda turadi. Asarda betob farzandining boshida parvona bo'lib, uni oyoqqa turg'izish uchun ona tomonidan ko'rsatilgan fidokorona harakatlar tasvirlanadi. Onaning vaqtni ham unutib, kunni kun, tunni tun demay shifo izlab, najot istab va ozgina bo'lsa-da umid qidirib, juda olis yo'llarni bosib o'tishi – bu holat "Ona" degan nomga munosib har qanday ayolning qismati sifatida talqin qilinadi. Shu sababli kampirning folchi Bo'lgan Kal oldiga borishi, undan foyda bo'lmagach, tabib Luqmoni Hakim huzuriga uzoq masofa bosib borishi hikoyaning dramatik kuchini oshiradi.

Ushbu parchada kampir bilan Luqmoni Hakimning suhbati quyidagicha tasvirlanadi:

"– Nega menga egilding, odamlarning ulug'i? – dedi og'rinib. – Aksincha, men senga ta'zim etmog'im darkor edi. Men hayotimda mingta, maqtanib aytsam, o'n mingta odamni hayotini saqlab qoldim. Sen bo'lsa... E-he!..

Chol kampirning haqiqiy ulug'vorligini ko'rsatmoqchiday, ikki qo'lini yoyib butun dunyoni ko'rsatdi. Bechora kampir chidab turolmadi – Luqmoni Hakimga umid bilan tikilib, poyiga yiqilib, yoshiga yoqasi ho'l bo'lib, xunobasi mo'l bo'lib izillaverdi"[1].

Mazkur parchada onaning ichki iztirobi badiiylashtirilgan holda ifodalanadi va lirik ohangdorlik kuchaytiriladi. "Yoshiga yoqasi ho'l bo'lib, xunobasi mo'l bo'lib izillaverdi" tasviri onaning ruhiy dunyosidagi chidab bo'lmas dardni, ichki sinishni va mehrning eng tabiiy ifodasi bo'lgan ko'z yoshni ko'rsatadi. Izillash esa uning ruhiy sinishi va dardining tashqi ko'rinishi sifatida talqin qilinadi.

Hikoya yakunida onaiyzorning Xudoga qilgan nolasi asarning eng dramatik va badiiy cho'qqisi sifatida namoyon bo'ladi. Muallif bu sahnada insoniy iztirob, ona mehrining cheksizligi va fidoyilikning oliy darajasini poyetik ohangda ifodalaydi. Ona hech qayerdan davo topolmaganidan so'ng, oxirgi umid sifatida Xudoga yuzlanadi:

«Xudoyim! Mening nolamga ham bir bor quloq sol! Hech bo'lmasa, Qo'ng'irotday bir yurtning duosini inobatga ol! Sochim supurgi, qo'lim kosovlikda umrim kechdi. Bir farzand o'stirdim. Bir taqdir qushini o'limdan saqlab qoldim. Endi bolam o'ladigan bo'lib yotibdi. Tog'dan pastga tusholmay turibman. Qo'rqamanki, meni benajot qaytganimni sezgan bolaginamning bu dunyoda qarori qolmaydi... Xudoyim! O'zing qo'llagin! Rahmat nurin boshimdan soch. Meni g'ozga aylantir-da, keyin inon-ixtiyorimni o'zimga ber!.. Xudoyim!.."[2].

Mazkur parchada bir necha badiiy qatlamlar mujassam:

Lirik ohangdorlik – Onaning Xudoga murojaati she'riy monolog tusini oladi. Bu murojaat oddiy so'zlashuv emas, balki ichki iztirobning poyetik ifodasidir.

Ramziy qatlam – Onaning g'ozga aylanishi ramziy ma'noga ega. G'oz xalq dostonlarida elchi, xabar yetkazuvchi qush sifatida talqin qilinadi. Bu yerda esa u ona mehrining, fidoyilikning va millat taqdiriga sadoqatning ramziga aylanadi.

Epik asos va dramatizm – hikoya xalq dostonlariga xos epik asosda qurilgan bo'lsa-da, aynan shu sahnada dramatizm kuchayadi. Ona o'zining jismoniy ojizligini ruhiy kuch bilan yengib, o'zini farzandiga qurbon qilishga tayyor bo'ladi.

Estetik tamoyil – Muallif oddiy voqeani yuksak badiiy-estetik darajaga ko'taradi. Onaning so'zlari orqali insoniy munosabatlar, ona va farzand o'rtasidagi mehr, milliy qadriyatlar va fidoyilik oliy qadriyat sifatida tarannum etiladi.

Ona niyatining amalga oshib, g'ozga aylanishi va mergan o'g'lining yoniga uchib borishi hikoyaning ramziy yakunini belgilaydi. Bu sahna orqali muallif insoniy mehr va fidoyilikning ilohiy darajaga ko'tarilishini ko'rsatadi. Ona o'zini farzandiga qurbon qila-

[1] Usmon Azim. Tanlangan asarlar. 7-jild. Hikoyalar, U.Azim. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashiriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 576 b. 10 b.

[2] Usmon Azim. Tanlangan asarlar. 7-jild. Hikoyalar, U.Azim – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashiriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 576 b. 8 b.

di, shu orqali milliy ruh, ona mehrining ulug'vorligi va insoniylikning oliy qadriyat sifatida tasdiqlanadi. Hikoya voqealari xalq dostonlariga xos epik asosda qurilgan bo'lsa-da, unda lirik monologlar, ona va farzand o'rtasidagi iztirobli suhbatlar, xalqona murojaatlar she'riyat ohangini beradi. Bu uyg'unlik Usmon Azimning nasrni poetik darajaga ko'tarish mahoratini ko'rsatadi. Adibning nasrida epik va lirik qatlamlarning birlashuvi, ramziy tasvirlar va xalqona ohanglar orqali milliy qadriyatlar ulug'lanadi. Shu tariqa, hikoya nafaqat badiiy-estetik jihatdan, balki milliy ruh va ma'naviy qadriyatlarni ifodalash nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Asarning asosiy g'oyasi oddiy insoniy munosabatlar fonida butun xalq taqdirini, unga bo'lgan mas'uliyat va burchni oliy qadriyat sifatida tarannum etishdir. Bu jihat Usmon Azimning nasr va she'riyatidagi umumiy badiiy tamoyillarni birlashtiradi. Uning o'nlab she'rlari va dostonlari mavzu, janr va uslub jihatidan turlicha bo'lsa-da, jo'shqinlik, shiddat va beg'uborlik bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, asarlarda hayotning o'ziga xos dramatizmi va fojeaviyligi kuchli tarzda aks etib, o'quvchini hayajonga soladi, uni fikrlashga undaydi. Eng muhim jihati shundaki, Usmon Azimning she'r va dostonlarida ona Vatanga muhabbat, xalq tashvishlari va kelajak muammolari turli badiiy shakllarda ifodalanadi: goh zamonaviy mavzular orqali, goh tarixiy-qiyosiy yondashuvda, goh folklor an'analarining ruhida. Shu tariqa, uning ijodi chuqur realistik ifodaga ega bo'lib, milliy o'zlikni anglash va uni asrab qolish yo'lida adabiyotning yuksak estetik vazifasini bajaradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, "Usmon Azim ijodida milliy qadriyatlarga tayangan holda yaratilgan asarlar nafaqat millatning o'zligini asrab qolish, balki uni anglash va teranroq idrok etish masalalarini ham yuksak badiiy ohangda ifodalaydi. Adibning xalqona ruhda yozilgan asarlarida mardlik, fidokorlik, nomus va oriyat kabi fazilatlar ulug'lanadi, ular milliy ruhning ajralmas qismi sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, oilaning muqaddasligi, farzandga bo'lgan mehr, yurtga sadoqat singari qadriyatlar qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning hayotiy tanlovlari orqali yanada batafsil ochib beriladi"[1].

Rezyume. Mazkur maqolada Usmon Azim nasrida she'riyatga xos tasviriy vositalar, lirik ohang va ramziy qatlam tahlil qilinadi. Shuningdek, "G'oz" hikoyasi misolida she'r va nasr o'rtasidagi umumiy badiiy tamoyillar ochib beriladi.

Резюме. В данной статье анализируются присущие поэзии изобразительные средства, лирический тон и символический слой в прозе Усмона Азима. Кроме того, на примере рассказа «Гус» раскрываются общие художественные принсипы, об'единяющие стих и прозу.

[1] Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. – Тошкент:. Илм-зиё заковат, 2020. Б.35